# Oʻzbekiston Bosh vaziri Qozogʻiston Bosh vazirining oʻrinbosarini qabul qildi

Image not found or type unknown

**Joriy yil 5 mart kuni Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vaziri A. Aripov Qozogʻiston Respublikasi Bosh vazirining oʻrinbosari Ye. Tugjanovni qabul qildi.**

Uchrashuvda ta’kidlanganidek, Oʻzbekiston va Qozogʻiston oʻrtasida, COVID-19 koronavirus pandemiyasiga qaramay, ustuvor yoʻnalishlardagi oʻzaro aloqalar faol davom etmoqda.

Ta’lim, sogʻliqni saqlash va farmatsevtika sanoati kabi muhim sohalarda hamkorlikni yanada rivojlantirish istiqbollari muhokama qilindi.

Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vazirining Matbuot xizmati